CHarchashning axamiyati. CHarchashning biologik axamiyati shundan iboratki, u asab xujayralaridagi tormozlanishni yuzaga keltirish bilan markaziy asab sistemasini va butun organizmni uta kuchlanishdan /zurikishdan/ va tolikishdan ximoya kiladi.

Uta kuchli bulmagan takroriy charchash organizmdagi fundamental imkoniyatlarning, undagi ishga layokatlilikning ortishini ta'minlovchi omildir.

Sport mashklarining xar xil turlarida charchashning yuzaga kelishi sabablari.

TSiklik dinamik ishlarning bajarilishi tezligi buyicha 4 ta zonaga ajralishi xakida jismoniy mashklar tasnifi bobida aytilgan edi. TSiklik dinamik ishning bu turlarida charchashning yuzaga kelish sabablari xam uziga xosligi bilan farklanadi.

Maksimal tezlikdagi tsiklik dinamik ishlarda charchashning yuzaga kelish sabablaridan biri, xarakterning maksimal tezlikda bajarilishini ta'minlash uchun asab markazlarining yukori kuchlanishda ishlalishi va ishlayotgan muskullardan markaziy asab sistemasiga juda yukori tezlikda kelayotgan affirent impulslarning ta'siridir. Bunday xolat asab xujayralarining labilligini /funktional xarakatchanligini/ pasaytirib, ularda tormozlanishni rivojlantiradi.

Maksimal tezlikdagi ishlarda charchashning yuzaga kelishiga ikkinchi sabab kup mikdorda kislorod karzining /zarur bulgan kislorodning 90 %/ yuzaga kelishidir. Organizmning ichki muxitida chala oksidlangan maxsulotlar tuplanishi muskullarning kuzgaluvchanligini va labilligini pasaytiradi va xemoretseptorlarga ta'sir kursatish bilan asab markazlarining ishini susaytiradi.

Submaksimal tezlikdagi tsiklik dinamik ishlarni bajarishda charchashni yuzaga keltiradigan sabablar maksimal tezlikdagi ishlardagiga uxshash bulsa, xam lekin shu muddatning 3-4 dakika davom etishi charchashga olib keluvchi omillarni kuprok rivojlantiradi. Bunday ishni bajarishda, bosh miya yarim sharlari pustlogining xarakat zonasidagi xujayralar fakt yukori tezlikda ishlayotgan muskullardan kelayotgan affirent impulslar ta'sirida uchrashidan tashkari, Ayni paytda nafas olish va kon aylanish sistemalari funktsiyasining etarli darajada rivojlanmasligi okibatida kelib chikadigan gipoksiya va gipoksemiya xam rivojlanadi. Kislorod karzi yukori darajaga /19-20 l/ etadi, organizm muskullaridagi moddalar almashinuvining maxsulotlari, jumladan, sut kislotasi ancha tuplangan sharoitda ishlaydi. SHunday kilib, submaksimal tezlik bilan bajariladigan ishlarda charchashning yuzaga kelishi asosan markaziy asab sistemasi faoliyatining susayishi va vegetativ funktsiyalarning kislorod etishmagan sharoitda ishlashi natijasida sodir buladi.

Masalan, sportchi 400 m masofa yugurganda, uning konida ut kislotasining mikdori ishning 2-3 dakikasida kupaya borib, marraga kelganidan sung 250 mg% gacha etadi, yoki normaga nisbatan 20-25 marta kupayadi.

Katta tezlikdagi tsiklik dinamik ishlarida charchashning yuzaga kelish, bunday ishlarni ancha uzok vakt /30 dakikagacha/ davom etishi bilan boglik bulib, organizm asosan yolg'on turgun xolatda ish bajaradi. Vegetativ funktsiyalarning yukori darajada rivojlanishiga karamay muskullardagi moddalar almashinuvi natijasida chala oksidlanish maxsulotlar tuplanib boradi, bu xoll organizmning ichki muxitini uzgarishiga gomeostazning buzilishiga, markaziy asab sistemasi xujayralarining buzilishiga, markaziy asab sistemasi xujayralarining funktsional imkoniyatini pasayishiga olib keladi. Uzok muddat davomida xarakat apparati vegetativ organlarining shiddatli ishlashi okibatida yuzaga kelgan yukoridagi uzgarishlar muskullarda kiskarish kobiliyatining pasayishiga, ularda labillilik pasayishiga, kon bilan ta'minlanishning buzilishiga organizmning ish kobiliyatini susayishiga olib keladi.

Urtacha tezlikdagi tsiklik dinamik ishlarda charchashning xosil bulishi sportchi organizmining xaddan tashkari uzok vakt davomida /soatlab/ ishlashi natijasida, juda kup mikdorda energiya sarflanishi, organizmda energiya manbalarining, asosan konda glukozaning /40-60 % gacha/ kamayishi, termoregulyatsiyaning buzilishi /tana xaroratining 39-40 S gacha kutarishili/ markaziy asab sistemasiga ishlayotgan muskullardan uzok vakt davomida bir xildagi /monotonli/ pullarning kelib turishi kabi omillar asab xujayralarining kuzgaluvchanligi va labilliligining pasayishiga sabab buladi. Muskullarning uzok vakt davomida ish bajarishi uchun energiya resurslarini safarbar etadigan asab-gumarol mexanizmlar faoliyatining buzilishi muskullarning ish kobiliyatini pasayishiga olib keladi.

Ishlayotgan muskullardan uzok vakt davomida markaziy asab sistemasiga kelayotgan monotonli affirent impulslar ximoyaviy tormozlanishni rivojlantiradi, konda kand mikdorining kamayishi markaziy asab sistemasi ishining susayishiga, analizatorlar va xarakat apparati faoliyatining yomonlashishiga sabab buladi.

Termogulyatsiya buzilishi natijasida, ayniksa xavoning namligi va issigi yukori bulganda organizmdan kup mikdorda suv va turli mineral moddalar /natriy, kaliy v ax.k/ yukotilishi markaziy asab faoliyatining buzilishiga, issik urishi /bosh ogrishi/ uygunlikning yomonlashishiga, ba'zida xushdan ketish kabi xolatlarga olib keladi. Xavo xarorati juda past bulgan sharoitlarda xam organizmning tez charchashi /mass, changi sportida/ kuzatiladi.

Jismoniy mashklarning atsiklik turlarida charchashning yuzaga kelishi sabablari turlicha buladi. masalan, sport uyinlarida xarakatning bajarilishi – yuzaga kelgan vaziyatga

boglik bulgani sababli organizm javobni sintezlanishi va doimo xarakatning yangi programmasini tuzish zarurligini markaziy asab sistemasining oliy bulimlarini charchashga olib keladi. Natijada xarakat uygknligi yomonlashadi, ayrim analizatorlar faoliyati susayadi. Bundan tashkari xokkeyga uxshash tezlik va kuch bilan bajariladigan jismoniy mashklarda kislorod etishmasligi, kislorod karzining tuplanishi ish kobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Statik kuchlanishlarda charchashning yuzaga kelishi, bunday ishlarda kator muskul gruppalarining tinimsiz kiskarib turishi bilan boglik buladi. shuning uchun xam statik kuchlanishlarda charchashning yuzaga kelishi dinamik ishlardagiga nisbatan juda tez buladi. Bunda charchashni yuzaga keltiradigan omillarga ishning kislorod etishmagan sharoitda bajarilishi va markaziy asab sistemasiga ishlayotgan muskullardan tinimsiz affirent impulslarni katta tezlik bilan ketma-ket kelib turishi sabab buladi. shuni xam kursatish kerakki, statik kuchlanishlarda ish boshlaganidan keyin charchashning xosil bulish muddati muskullarning kanday darajada taranglashishiga karab bir necha soniyadan, bir necha dakikagacha boradi, ya'ni bajariladigan ish kutarilib turadigan yuk kanchalik ogir bulsa, charchashning yuzaga kelishi shunchalik tez buladi va aksincha. Masalan, gimnatikada kullar bilan xalkaga tayangan xolda krest mashkini bajarishda charchash juda kiska vakt ichida yuzaga keladi. Aksincha utirgan yoki turgan xolatda gavlan ma'lum pozada ushlab turish statik kuchlanishlarda charchash ancha uzok vaktan paydo buladi.

Gimnastika va ogir atletika kabi sport turlari bialn shugullanib yuzaga keluvchi charchash muskullarining funksional xolatining uzgarishi bilan ifodalanadi. Muskullarning kuzgaluvchanlik, kuchi kamayadi, ularning kattikligi, chuziluvchanligi, kiskarishi va bushashi tezligi uzgaradi.

CHarchashning rivojlanishi kishining yoshiga xam boglik buladi. ya'ni organizmda ishlash kobiliyatining, xarakat tezligining pasayishi kattalarga nisbatan bolalarda yukori darajada buladi. Bolalar charchash natijasida organizmning muxitini biroz uzgarishi bilanok xali kislorod karzi unchalik ortmasdan ishni tuxtatadilar.

Urtacha tezlik talab kiluvchi mashklarni bajarishda utkazilgan tekshirishlar usmirlarda charchashning kuchli buzilishi ayniksa mashklarning energiya kiymatinining ortishi bilan kuzatiladi. Maksimal tezlikda yugurishning eng yukori darajasiga erishganidan keyin charchash natijasida 7-10 yoshli bolalarning xarakatchanligi va kuchsizligi xamda ximoyaviy tormozlanishning tez rivojlanishi tufayli yuzaga keladi, deb karaladi. YOsh ortishi bilan tezlikka chidamlilikning rivojlanishi okibatida xarakat tezligining pasayishi sekinlashadi.

YOsh sportchilarning sport faoliyatidan charchash kupincha xarakat uygunligi va xarakat xamda vegetativ funktsiyalaridagi uzaro ta'sirining buzilishida ifodalanadi. masalan, suzishda marraga etish oldida xarakatning sport texnikasi yomonlashadi, nafas olish va xarakat kilish urtasidagi kelishganlik buziladi.

Tiklanish.

Xarakat boshkarilishining reflektor mexanizmlari.

Organizmning ichki muxitini normal xolati /gomeostazni/ ushlab turishini ta'minlaydigan fiziologik jarayonlar majmuasi tiklanish deb yuritiladi. Organizmning tinch xolatida xam, ish bajarishda xam kiskacha kilib aytganda, uning butun xayot faoliyatida funksional struktura va boshkarish rezervlarining bir biri bilan juda kattik boglangan. Sarflanish va tiklanish jarayonlari tinimsiz utib turadi. Nisbiy tinch xolatda bu jarayonlar ancha past darajada buladi. organizmning faoliyati davrida sarflanish jarayonlari

tiklanishidan yukori buladi, ya'ni dissimlyatsiya /katalizm/ assimlyatsiya /anabolizm/ dan ustun turadi. Dam olish vaktida esa, aksincha, dissimlyatsiyadan kuchli bulib, organizm yukotgan energiyaning tiklanishini ta'minlaydi.

CHarchash yuzaga kelganda keyin organizmning dam olish vaktida tiklanish jarayonlari utadi. YA'ni muskul ishi ta'sirida fiziologik funktsiyalar /tomir urishi soni, kon bosimi, upka vietelyatsiyasi kislorod uzgartirishi, tana xarorati, organizmdagi turli sistemalarining kuzgaluvchanligi va boshkalar/ ma'lum vakt utgandan keyin ishdan oldingi xolatiga kaytadi. Bu xolat tiklanish deb yuritiladi.

Tiklanish uchun ketgan vakt tiklanish davri deb ataladi. A.Korobkov tiklanishni davriy, ishdan oldingi, ish vaktidagi va ishdan keyingi tiklanishlarga ajratadi.

Tiklanish davrining muddati bajariladigan ishning xarakteriga, tezligiga, muddatiga sportchining jismonan chinikkanligiga boglik buladi.

Tiklanish jarayonlari ba'zi muskul ishlarida sportchining fakat dam olish vaktidagina yuzaga kelmay, balki ishning bajarilish vaktida sodir buladi. leki nish bajarilayotgan vaktida dissimlyatsiya jarayonlari assimlyatsiya jarayonlaridan ustun turadi, ya'ni energiya resurslarining sarflanishi uning tuplanishidan yukori buladi.

Dam olish vaktida esa, aksincha, organizmning energiya sarfi uning tuplanishida kam buladi, ya'ni assimlyatsiya jarayonlari sisimlyatsiya jarayonlaridan ustun turadi.

Tiklanish jarayonlarining borishi bir tekis emas, balki tulkinsimon buladi, ya'ni dam sekinlashadi, dam tezlashadi va yana sekinlashadi yana kutarilib nixoyat ishdan oldingi xolatga kaytadi.

Tiklanish jarayonlarining mos xolda oranizmning ish kobiliyati uzgaradi.

Muskul ishi bajarishda sarflangan moddalar tiklanish davrida ishdan oldingi xolatdan bir muncha yukori darajada tuplanadi. Bu muskul ishi tugagandan keyin ma'lum vakt utishi bilan yuzaga kelib u tiklanishidan yukori /superkompensatsiya/ faza nomi bilan yuritiladi. Superkompensatsiya keyin tulkinsimon shaklda ishdan oldingi xolatga keladi. Superkompensatsiya fazasi bir necha soatdan 1-2 kungacha davom etishi mumkin. Agar takroriy ish xar gal superkompensatsiya fazasida boshlansa energiya manbalarining darajasi orta boradi, chunki energiya sarfi xam yukori darajada buladi va nixoyat doimiy tiklanish yukori buladi.

Ortikcha tiklanish darajasi energiya sarfining mikdori va shiddatiga boglik buladi. yukori tezlik bilan bajariladigan ishlarda ureatin fosfat /KF/ ancha shiddat bilan sarflanadi. SHuning uchun bunday mashklar bilan shugullanishda u kup ortadi. Uzoq muddatli va yukori tezlik bilan bajariladigan ishlarda glikogen kuch bilan bajariladigan ishlarda glikogenga talab kam buladi. shuning uchun, yukori tezlik va uzoq muddat bilan bajariladigan ishlar kuch bilan bajariladigan ishlarga nisbatan glikogen mikdorining ortishiga sabab buladi. Ayni chogda kuch bilan bajariladigan ishlarda muskul oksillari yukori tezlik bilan ayniksa, uzoq muddatli ishlarni bajarishdagiga nisbatan, anchsa kup sarflanadi.

SHuning uchun xam kuch bilan bajariladigan ishlarni mashk kilishda oksillar sintezi eng kup bulishi kuzatiladi. Jismoniy mashklardan keyin tiklanish organizm funktsiyalarining fakat ishdan oldingi xolatiga yoki unga yakin darajaga kaytishidan iborat bulmaydi. Agar mashklardan keyin sportchi organizmning funktsional xolati ishdan oldingi xolatiga kaytish bilangina tugaganda, tanlangan sport turi buyicha xech kanday takomillashish sodir bulmas edi. Sportchining jismonan chinikkanlagi ortsda, bu mashklardan keyin sportchi organizmida koladigan reaksiya izlarining okibatidir. Bu reaksiyalar yukolmaydi, aksincha puxtalanadi. Sportchi organizmida tiklanish davrida buladigan funktsional sistemalar konstruktiv

chinikkanlikning ortishiga asos bulib, xizmat kiladi. SHu sababli, ishdan keyingi xolatni taxlil kilishda 2 ta fazani ajaritish zarur buladi: 1. Muskul ishi ta'sirida samotik va vegetativ funktsiyalarning uzgarish fazasi: bu faza bir necha dakika va soatlar bilan ulchanadi. /tiklanishning erta davri/. Buning asosida organizmning gemostaz tiklanishi yotadi. 2. Konstruktiv faza /tiklanishning kechiktirilgan davri/ bu davrda organ va tukimalarda funktsional va struktura uzgarishlari shakllanadi.

Funktsiyalarning tiklanish xususiyatlari.

Tiklanish jarayonlarining muxim xususiyati – ish bajarilgandan keyin turli kursatkichlarning ishdan oldingi xolatga kaytishining bir xil muddatda bulmasligidir, ya'ni geteroxrom tarzda utishidir.

1930 yildayok M.E.Marshak kislorod uzlashtirish, upka vetilayatsiyasi tomir urishi tezligi, arteriya kon bosimi va teri 'xaroratining ishdan oldingi xolatga kaytishi xar xil muddatga bulinishi kursatgan edi. 30 soniya davom etadigan maksimal tezlikdagi mashklardan keyin ish kobiliyatining 90%, odatda 90-120 soniya davomida tiklanadi. Vegetativ asab sistemasining ayrim kursatkichlari 3-4 dakika, xatto undan kuprok vakt utgan tiklanadi. Kislorod tashuvchi sistemaning asosiy kursatkichlari tiklanishdan oldin yuzaga keladi.

Bajarilgan muskul ishi ta'sirida organizmda yuzaga kelgan uzgarishlarning ishdan oldingi xolatga kaytishi xamma organ va sistemalarda bir vakt davomida bulmay ba'zilar tez, boshkalarda sekin, geteroxron tarzida yuz beradi. Masalan, tiklanish davrida kislorod uzlashtirilishi upka vetilyatsiyasi arteriya kon bosimi va tomir urishining ishdan oldingi xolatga kelishi bir vaktida bulmasligi tekshirishlarda aniklangan. Urtacha ogirlikda ishdan keyin kislorod uzlashtirilishining ishgacha bulgan darajaga kaytishi sut kislotasining mikdorini normaga kelishidan tez buladi, konning ishkor rezervi esa, avvalgi xoliga yana xam kechrok kaytadi. Kurashchilarning 40 dakika olishuvidan keyin oldin nafas, keyin tomir urishi ishdan oldingi darajaga kaytadi. Muskul kuchi esa uzok vakt /bir kecha kunduzdan ortik vakt davomida/ kamayganligicha koladi.

Skelet muskullaridagi energiya resurslarining tiklanishi xam xar xil muddatda buladi. Masalan, ATF mikdorini ishdan oldingi darajaga kelishi kreatin fosfatga nisbatan tez /bir necha soniya dakika soat mobaynida/ oksillar tiklanishida esa, eng keyin yuz beradi.

Bundan tashkari glikogen mikdorining tiklanishi turli organlarda turli vakt ichida sodir buladi. Masalan u oldin miyada keyin yurak muskullarida sungra skelet muskullarida va ancha kechrok esa, jigarda tiklanadi.

Energiya manbalarining eng zarur organ va sistemalarida boshkalardagiga nisbatan, tezrok tiklanishi funktsiyalarining umumiy sistemasida eng muxim va asosiy boglanishlarning tezrok tiklanishidan dalolat beradi, chunki bu organ va sistemalarining butun tiklanish jarayonlari tezligini belgilaydi.

Funktsiyalar tiklanishida geteroxranizm /bemavridlik/ ogir jismoniy ishlar tugagan zaxoti ayniksa sezilarli buladi. keyinschalik buladigan tiklanish davri dakika va soatlar davomida emas, balki bir necha kun davom etadi.

SHtangachilarda, suzuvchilarda, engil atletikachilarda, shiddatli mashk ishlaridan keyin tiklanish davri xatto 2 sutkaga chuzilishi mumkin. Bunda oddiy tomir urishi, siydikning bioximyaviy kursatkichlari /RN/ va kratin konning RN ni /pirouzum va sut kislotasi/ tiklanadi. Keyin yurakning sinov ishga reaksiyasi, upkaning makssimal vintelyatsiyasi asab muskul apparatining labilligi va kuch kursatkichlari eng oxirida esa, asosiy almashinuv tiklanadi.

4 mavzu:	Harakat malakalari shakllanishining fiziologik mexanizmlari.
-----------------	---

4.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, ma'ruza axborot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Xarakatlar boshqarilishining reflektor mexanizmi 2. Xarakat malakasining somatik va vegetativ komponentlari 3. Xarakat malakalarida dinamik stereotipning yuzaga kelishi 4. Xarakat malakalarining shakllanish fazalari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni harakat malakalari shakllanishining fiziologik mexanizmlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: - Harakat malakalari shakllanishining fiziologik mexanizmlarini ochib berish. -Xarakatlar boshqarilishini reflektor mexnazmlarini tushuntirish -Xarakat malakasining somatik va vegetativ komponentlari bilan tanishtirish. -Dinamik stereotipni tavsiflash. -Xarakat malakalarining shakllanish fazalarini izoxlash.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Xarakatlar boshqarilishini reflektor mexnazmini izoxlaydi -Xarakat malakasining somatik va vegetativ komponentlariga ta'rif beradi. -Dinamik stereotipga misollar keltiradi. -Xarakat malakalarining shakllanish fazalarini sanab beradi va izoxlaydi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Muloqot, sharxlovchi axborot, “ha-yo'q” texnikasi
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy majmua, tayanch konspekt.
O'qitish shakli	O'zaro xamkorlikga asoslangan.
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

4.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi talaba	
1 bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2 bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. a) Razminka nima, uni qanday turlari bor? b) Ishga kirishish deganda nimani tushunasiz? s) Charchash, uni fazalarini aytib bering? d) Tiklanish tushunchasiga ta'rif bering. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan xolda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. - Xarakatlar boshqarilishini reflektor mexanizmlari xamda xarakat malakasining somatik va vegetativ komponentlarini sharxlaydi. 2.3. Xarakat malakalarida dinamik stereotipning yuzaga kelishi, xarakat malakalarining shakllanish fazalari to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi. a) Dinamik stereotip deganda nimani tushunasiz? b) Dinamik stereotip misollar keltiring? s) Irradiatsiya fazasi nima bilan xarakaterlanadi? d) Kontsentrlanish, avtomatlashish fazalarini tushuntiring kabi savollarni tushuntirib beradi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
3 bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Chaqqonlik sifatleri rivojlanishining fizioloigk mexanizmi" vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

2-mavzu: Harakat malakalari shakllanishining fiziologik asoslari.

2.2. Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti O'quv mashg'uloti rejasi
O'quv mashg'uloti rejasi:	1. Xarakatlar boshqarilishining reflektor mexanizmlari 2. Xarakat malakasi dasturining shakllanishi. 3. Xarakat malakasining shakllanish fazalari 4. Sport texnikasini o'rgatishning fiziologik qoidalar
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Bu seminar mashg'uloti jarayonida savollar va muammolar borasida suhbat o'tkaziladi. Bu darsda “aqliy hujum” usulini ham qo'llash mumkin.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - fiziologik tushunchalarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Xarakatlar boshqarilishining reflektor mexanizmlarini yoritib beradi - Xarakat malakasi dasturining shakllanishini tavsiflaydi. - Xarakat malakasining shakllanish fazalarining mazmuni yoritadi. - Sport texnikasini o'rgatishning fiziologik qoidalarini sharhlab beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Blits-so'rov, birgalikda o'qiymiz, munozara.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proektor.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi (2-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzuning maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tilishini ma'lum qiladi. 1.2. Blits-so'rov o'tkazadi va auditoriyaning tayyogarlik darajasini aniqlaydi: 1) Xarakatlar boshqarilishining reflektor mexanizmlari deganda nimani tushunasiz? Mavzu mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadilar va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalarni 4 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi. O'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.3. Tayyorlangan taqdimotni namoyish etadi. 2.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.5. Insert usulida 3-ilovadagi topshiriqni tayyorlashni taklif etadi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. To'ldiradilar. 2.3. Topshiriqni tayyorlaydilar.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni shakllantiradi. Guruhlarga umumiy ball beradi. Talabalarni baholaydi va rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida test beradi.	Eshitadilar. Topshiriqni oladilar.

O'quv topshiriqlar

1- ilova.

Guruh bilan ishlash qoidalari
Guruh a'zolarining har biri - o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim; - berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim; - o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin; - yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim; - guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim; - "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

2-ilova

Guruhlar uchun topshiriqlar.

1-guruh.

Xarakatlar boshqarilishining reflektor mexanizmlari mazmunini yoriting.

2- guruh.

Xarakat malakasi dasturining shakllanishini tavsiflang.

3- guruh.

Xarakat malakasining shakllanish fazalarini yoritib bering.

4-guruh.

Sport texnikasini o`rgatishning fiziologik qoidalarini sharhlab bering.

3-ilova.

“Insert usuli”

Insert - samarali o`qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o`qib-o`rganishda yordam beradi. Bunda ma`ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o`qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o`z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o`ylantirdi. Bu borada menga qo`shimcha ma'lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Fiziologiya				
Fiziologiyaning asosiy vazifalari				
Xotira				
Dinamik stereotip				
Irradiatsiya				
Sport texnikasini o`rgatish qoidalari				

Test.

1. Kuch va tezlikni maksimal safarbar etilish bilan bog'liq harakatlarga qanday harakat deyiladi:

- a) Statik harakat b) Dinamik harakat s) Kambinatsiyalangan harakat d) Atsiklik harakat

2. Harakat doirasining (harakat sikliligini) ko'p marta takrorlanishini tashkil qiladigan harakatlar qanday harakat deyiladi:

- a) Atsiklik
b) Dinamik
c) Statik
d) TSiklik

3. Ma'lum harakat malakalariga ega bo'lgan sportchi o'z raqibi hamda o'z sheriklari faoliyatini hisobga olgan xolda, imkoniyatlarni safarbar qiladigan harakatga qanday harakat deyiladi:

- a) Atsiklik
b) Statik
c) TSiklik
d) Nostandart harakat

4. Funktsiyalar rivojlanganidan keyin bir qancha vaqt davomida ularning bir tekisda saqlanish xolatiga qanday xolat deyiladi:

- a) Ishga kirishish
b) Sport oldi xolati
c) Turgun xolat
d) CHarchash

5. Oldingi boshdan kechirgan ishlarning markaziy asab tizimida qoldirgan izlariga nima deyiladi:

- a) CHarchash
b) Tormozlanish
c) Xotira
d) Aql

6. Qo'zg'ali jarayonining markaziy asab tizimini juda ko'p qismga yoyilishi tarqalishiga nima deyiladi:

- a) Avtomatiya
b) Kontsetratsiya
c) Irridatsiya
d) Ekspolyatsiya

7. Massa va unga berilgan tezlanish ko'paytmasiga nima deyiladi:

- a) Massa
b) Tezlanish
c) Kuch
d) Harakat sifati

8. Tubandagi so'zlar ichidan harakat sifatlarini belgilang:

- a) TSiklik
b) Dinamik
c) Kuch, tezlik, egiluvchanlik
d) Atsiklik

Reja:

- 1. Xarakatlar boshqarilishining reflektor mexanizmi**
- 2. Xarakat malakasining samotik va vegetativ komponentlari**
- 3. Xarakat malakalarida dinamik stereotipning yuzaga kelishi**
- 4. Xarakat malakalarining shakllanish fazalari.**

I.M.Sechenov birinchi bulib, bizning xamma xarakatlarimiz chikib kelishi buyicha reflekslaridir va «miya faoliyatining jamiki tashki kurinishlari muskul xarakatiga kelib tarkaladi» deb kursatgan.

Xarakat malakalari fiziologik nuktai nazardan shakllanish mexanizmi buyicha murakkab sharti xarakat refleksidir.

Bu reflekslarning xosil bulishi uchun, turli analizatorlardan /xarakat, vetibulyar kurish va boshkalar/ keladigan ma'lumotlar va kanday xarkat kilish zarurligi xamda xarakatni bajarish xususiyatlari xakidagi xabarlar muxim axamiyatga ega. Bunday xolatda markaziy asab sistemasida xarakat vaktining modeli bilan xakikiy bajariladigan xarakat tuxtovsiz takkoslanadi.

Xarkat malakalari sport bilan shugullanishda yoki biroq kasbni egallashda takrorlanadi va shu yul bilan borgan sari puxtalanib takomillashib boradi.

Inson faoliyatining apparati, ishni boshkaruvchi markaziy asab sistemasi faoliyatining rivojlanib borishi bilan boglik. CHunki xarakatning yuazaga chikishi ayniksa, murakkab va nozik xarakatlarning bajarilishi muskul guruxlarining xar xil sondagi asab muskul xarakat birliklari va muskul tolalarining ishtirokida amalga oshiriladi. Bu elementlar ishning oldga kuyilgan maksadga mos bulishi ularning bir biri bilan kelishgan xolda ish bajarishini ta'minlash uchun asab markazlari juda murakkab vazifalarni bajaradi.

Katta yarim sharlar pustlogida vaktinchalik boglanishlarning xosil bulish va mustaxkamlanishi mashk kilish natijasida avtomatlashgan xarakat malakalarini xosil kilishga asos buladi. odam uz faolityai davrida xosil kiladigan xarkat malakalari rivojlangan buladi: masalan, tika turish, yurish, yugurish, jismoniy tarbiya va sportdagi xar xil xarakatlar malakalariga kiradi.

Malakalarni xosil kilishda miya pustlogining effektor piramidal neyronlari bilan xarakat analizatorlarining pustlokda sensor xujayralari urtasida neyronlararo vaktinchalik boglanishlar paydo buladi, odam yashaydigan tabii sharoitda xarakat malakalari kupincha sinab kurish va yanglishish metodi bilan, ya'ni kidirish sinash jarayonlari natijasida sodir buladi. Bolaning barkaror tika turish, yurish va shunga uxshash xarakat malakalarini xosil kilishida sinov kidiruv xarakatlarining bajarilishi bilan vaktinchalik boglanishlar xosil bulishi mexanizmi muxim rol uynaydi. Gavda muvozanatining saklanishini uning fazada uzgarishini ta'minlaydigan xarakatlar mustaxkamlanib boradi. Gavda muvozanatini saklashga xalal beradigan yoki gavdaning sistemasiga yordam bermaydigan xarakatlari esa tormozlanadi. Xarakatning uzi yoki natijasi vujudga keltiradigan affirent impulsar shartli kuzgalishni beixtiyor mustaxkamlab turar ekan vaktinchalik boglanishlar saklanaveradi. Xarakat biron sabab bilan avvalgiday foydali natija bermasa ya'ni uz axamiyatini yukotsa shartli kuzgalish ta'surot bilan mustaxkamlanib turar ekan, vaktinchalik boglanishlar sakalanaveradi. Xarakat Biron sababbilan mustaxkamlanmasa, u vaktida vaktinchalik boglanishlar tormozlanadi.

Xarakat malakalarining shakllanishi fiziologik jixatdan shartli reflekslar mexanizmi buyicha yuzaga keladi. I.P.Pavlov va uning xodimlari olib borgan ishlar shartli reflekslar shartsiz asosda yuzaga kelishini kursatgan. Buning birorta shartli reflektor ta'sirlovchi /elektr lampasining yonishi, kungirok chalinishi va x.k./ ning ishga tushirilishi shartsiz ta'sirlovchi/ ovkat elektr toki va x.k. bilan kuzatilgan. Bunday shartli reflekslar birinchi tartibli shartli reflekslar deb yuritiladi.

Puxta ishlangan shartli reflekslar asosida xam yangi shartli reflekslar xosil kilish mumkin. Bunday reflekslar yukori tartibli reflekslar deb ataladi. Xarakat malakasining xosil bulishida markaziy asab sistemasidagi juda kup markazlarning bir-biriga uzaro ta'siri buladi. bu markazlarning ishi xarakat apparati va sensor sistemalaridan keladigan impullar va bosh miya yarim sharlari pustlogidagi ishlarning ishtirokui bilan tugirlanadi va takomillashadi.

Xarakat malakasini samotik va vegetativ komponentlari.

Xarakat malakasining xosil bulishining xamma boskichlarida uning xam mushak xam vegetativ komponentlari shakllanadi. Odatda mushak ishida nafas olish va kon aylanish organlari faoliyatining kuchayishi etarli darajada tez bulmaydi. Bunda vegetativ raektsiyalar xarakat «Talabani» aks ettirish xususiyatiga ega buladi. Masalan, statik kuchlanishlarda kichik kon aylanish doirasiga va vena konining yurakni ung bulmasi tomon okib kelishiga aloxida talab kuyiladi. Uzoq vakt yugurilganda nafas olish va kon aylanish aktivlashadi. Mashk kilish okibatida vegetativ asab markazlari urtasida shartli reflektor boglanishlar xarakatning ayrim elementlari urtasida uzaro puxta boglanish yuzaga keladi. Xarakat malakassi shakllanishining 3 fazasida shartli reflekslarning takomillashishiga xarakat va vegetativ komponentlarning birligiga erishish mumkin. Vegetativ funktsiyalarning uzgarishi shakllangan xarakat malakalarining samarali bajarilishini ta'minlaydi. Vegetativ funktsiyalarning xarakat malakasiga moslashishi xar xil malakalar shakllanishida xar xil buladi. Agar shakllanadigan xarakat malakalari oddiy bulsa, (masalan, yugurish, changida yurish) vegetativ funktsiyalar uzgarishi malakadan keyin yuzaga keladi. Bordiyu shakllanadigan malaka murakkab bulsa, (masalan gimnastika, kurash, sport turlari) malakaning vegetativ komponentlari malakadan oldin shakllanadi, lekin shuni kursatish kerakki bir turdan ikkinch turga utishi vegetativ funktsiyalarga nisbatan ancha tez buladi va aksincha vegetativ funktsiyalar esa uzoq vakt davomida avval xosil bulgan malakaga xos xolda koladi.

Masalan, uzluksiz bajariladi. Ishdan uzgaruvchan tezlikdagi ishga utiladigan xarakat funktsiyalari tez uzgaradi. Vegetativ organlar esa oldingi shaklda ishlayveradi. (Marshak)

Demak, xarakat malakalari va ularning vegetativ komponentlarining shaklanishi bir vaktida bulmay, u shakllanadigan malakaning oddiy yoki murakkabligiga boglik. SHuningdek xarakatning bir turdan boshka turga utishi vegetativ funktsiyalarga nisbatan kiska vakt ichida sodir buladi.

Xarakat malakalari va afferent sintezining amalga oshishi.

Afferent sintez retseptorlar sezuvchi neyronlar va markaziy asab sistemasidagi sezuvchi neyronlar ishtirokida yuzaga keladi. Bunda retseptorlar organizmni urab turgan tashki muxitdagi va organizmning uzida yuzaga kelayotgan uzgarishlarni kabul kiladi. Ularda xosil bulgan kuzgalish afferent neyronlar orkali markaziy asab sistemasidagi tegishli markazlarga utadi va analiz sintezi yuzaga keladi.

P.K.Anxin tarifiga kura, affirent sintezi asosan turtta omilning uzaro ta'siri orkali xosil buladi. bu omillarga 1. Motivatsiya, 2. Xotira, 3. Vaziyat ma'lumoti va 4. Ishga tushiriladigan belgi kiradi.

Motivatsiya xayvonlarda odamlardagiga nisbatan odiiy bulib, u asosan ovqatlanish bir jinsni ikkinchi jinsga intilishi, ximoyalanish kabi maksadlardan iborat buladi.

Bunday motivatsiya odamlarda xam buladi, lekin ularning mexnat va sport faoliyatidagi jamiyat bilan boglik bulgan motivatsiyalari muximrok yul uynaydi.

Xotira bu oldingi boshdan kechirilgan ishlarning markaziy asab sistemasida koldirgan izlari bulib, yuzaga kelayotgan vaziyatni belgilashda katta axamiyatga egadir. Sport faoliyatida yuzaga kelgan vaziyat buyicha ma'lumotlar /jismoniy mashk bajariladigan joyning kurinishi, sharoitlari va xakozo/ afferent sintezining xosil bulishida muxim rol uynaydi.

Nixoyat ishga tushiruvchi belgi (pistolet otilishi, xushtak chalinishi, bayrocha xarakati, komonda va boshkalar) afferent sintez uchun katta axamiyatga ega.

Ma'lumki, bir kancha sport turlarida (kurash, boks, sport uyinlari va shunga uxshashlar) xarakat bir necha marta tuxtatilib, kaytatdan boshlanadi. Bunday sharoitlarda sportchi juda kiska vakt ichida (soniya) xatto soniyaning bulaklarida yuzaga kelgan vaziyatni baxolash va unga mos xolda xarakat kilish kerak buladi. bunday sharoitlarda efferent sintezini yuzaga kelishini juda murakkab buladi.

Sportning ba'zi turlarida, ya'ni oldindan ma'lum bulgan dastur asosida bajariladigan jismoniy mashklardan (masalan, gimnatikada sportchi ishga tushishi zarur bulgan affirent sintezi sodir buladi) turli xarakat malakalari kanchalik kup bulsa, xarakat texnikasining takomillashishi shunchalik yaxshi buladi, chunki sportchilar xarakat texnikasini uzlashtirayotgan chogda ularni fikrlash kobiliyati faoliyat kursatadi. Maxsus kabul kilish oddiy xarakatlarni murakkab xarakatlarga birlashtirish xolatga takomillashadi. Texnik ustalikning takomillashishi ma'lumotlarni kabul kilish bilan boglik buladi. Masalan, xarakat analizatorining funktsiyasi muskullar kiskarishi dinamikasini va ularning uzaro boglanishni ta'minlaydi. U xarakat aktining faza va vakt buyicha uygunlashishida ishtirok etadi.

Vestibulyar analizator gavda xolatining fazadagi uzgarishida yuzaga keladigan xarakat uygunligi bilan boglik. Eshituv analizatori muskullar kiskarishi ritimini tashkil etishda kurish analizatori xarakat aktivligining fazali dinamikasida katnashadi.

SHartli refleks shakllanishini boshkarish jarayonlarining umumiy mexanizmi xakidagi tasavvur ratsional malaka shakllanishining mexnizmini tushunishga imkon yaratadi.

(P.K.Anxin 1974 y) Ixtiyoriy xarakatlarni boshkarish jarayonlari asosida tsikllilik yotadi, ya'ni xar bir xarakatning natijasi xakida xabar beradigan teskari affirentsatsiya bialn tutatish kerak, degan taxmin kilinadi.

Xarakat boshkarilishining tsiklligi 2 guruhga affirent omillar bilan ya'ni sharoit omili va ishga tushiruvchi omillar bilan ta'minlanadi. SHaroit ma'lumotlari bir kancha ta'sirlovchilar yigindisidan iborat bulib, u bulgusi ishga mos reaksiyalarni va ishga tushiruvchi belgilaridan oldin yuzaga keladigan asab jarayonlarni birlashtiradi. Ishga tushiruvchi belgi esa bevosita shartli ta'sirlovchining ta'siri buladi.

Xar ikkala gurux ma'lumotlari affirentsintez orkali birlashtiradi. Uning asosiy komponentlariga Ayni paytdagi maksad (motivatsiya) ish vaktiga mos bulgan sharoit ma'lumotlari ishga tushiruvchi belgilar va nixoyat xotira kiradiki bu xakda biz yukorida aytib utgan edik. Affirent sintez Ayni vaktdagi ustun maksadga buysungan xolda tugrilangan xotira orkali zarur bulgan xarakatni amalga oshiradigan kuzgalishlar muskullarga yuboriladi. Organizmga berilgan xamma afferent ma'lumotlar sintezi

tugamanguncha affirent apparatida reflektor reaksiyalari yuzaga kelmaydi. SHundan keyingina xarakat aktining malaka komponentlarini va ularning aktivlik darajasini tanlash asosida takror kabul kilinadi.

P.K.Anoxin tamonidan asab sistemasining effektor kismida maxsus affirent apparat – xarakat natijalarining aktseptori yuzaga kelishi aniklangan. Bu affirent apparat xakikiy xodisadan ilgari shakllanadigan kuzgalish bulib, nozik asab mexanizmlari asosida xosil buladi. U ayni vaktida zarur bulgan xarakat natijasini oldindan bilish, teskari affirentatsiya orkali xarakat natijasi xakida aktseptorga keladigan ma'lumot va uni xakikiy natija parametrlari bilan takkoslash imkonini beradi. Aynan shu apparat organizmda yul kuyilgan xatoni tugrilash yoki takomillashmagan xarakat aktlarini takomillashtirish imkonini yaratadi. Bu kuzgalishlarning xalkali rivojlanishi «bilish» va «kidirish» natijasi teskari efferenttsiya xarakat aktseptorida natijalarni takkoslash va baxolash, tugrilash yangi natijaning vujudga kelishi va boshkalar bir soniyaning bulaklarida sodir bulishi mumkin.

SHunday kilib, xarakat malakalarida affirent sintezining yuzaga kelishi uchun kuyilgan maksad (motivatsiya) sportchi orttirgan tajriba yuzasiga kelayotgan vaziyatdagi uzgarishlar va ishga tushiruvchi belgi eng muxim axammiyatga ega buladi.

Xarakat malakasining bajarilishida kayta boglanishning roli.

Affirent sintez fakat xarakat faoliyatining boglanishidagina bulmay, balki, xarakat bajarilishi davomida xam sodir buladi. bunda sensor sistemalar orkali markaziy asab sistemasiga kelayotgan impulsar orkali markaziy asab sistemasiga kelayotgan impulsar xarakatning kanday darajada bajarilayotgani xakida ma'lumot berish bilan, xarakatning keyingi tsikli, keyingi zvenosini tugilashda muxim rol uynaydi.

Mushaklarda, paylarda bugin boylamlarida, ichki organlarda joylashgan (retseptorlar) ijro etilgan xarakat impulsari yuboradi. Tashki sensor sistemalar esa yuzaga kelgan vaziyat xakida axborot beradi. Markaziy asab sistemasiga sensor orkali kelayotgan impulsar xarakatning keyingi tsikllarining kuyilgan maksadga mos bulishini ta'minlaydi.

Kiskacha kilib aytganda, bajarilgan xarakat xakida kayta boglanish orkali ma'lumot olinishi xarakatining keyingi tsikllarini markaziy asab sistemasida tuzilgan xarakat dasturiga moslanishida zarur axammiyatga ega.

Xarakat malakasini dasturining shakllanishi.

Xar kanday xarakat malakasini markaziy asab sistemasida mashk kilish jarayonida shakllangan dastu asosida yuzaga keladi. Oddiy xarakatlar va ma'lum shaklda bajariladigan xarakatlar dasturi shakllanishining murakkab koordintsiyali xarakatlarga xamda, vakt itigizligida bajariladigan xarakatlarga nisbatan asosan amalga oshiriladi, bu markaziy asab sistemasi uchun ancha engil buladi.

Xar bir xarakat mashk boshlanishi oldidan yoki uning bajarilishi davomida yuzaga kelgan affirent sintezi asosida dasturlanadi. SHunga asosan yakkama-yakka olishuvlar boks kurash kilibozlik va sport uyinlari kabi sport turlarida bajariladigan xarakatlar dasturlarining shakllanishi ancha keyin buladi. chunki shu bajarilishi davomida yuzaga keladigan vaziyatlarning turlicha bulishi xarakatning bir necha marta vakt tigizligiga bir necha marta afferent sintez iva shu sintez asosida dastur shakllanishini talab etadi. bu markaziy asab sistemasi uchun ancha ogir ish buladi. bunday sharoitda ba'zi sportchilarda shakllangan dastur ishining samarali bajarilishini ta'minlay olmasligiga ba'zida esa xatto ortikcha

xarakatlarni yuzaga kelishiga sabab buladi va okibat sportchi xarakat texnikasida xatoga yul kuyasdi. Masalan, futbol, xokkey sport uyinlarida tupni uz darvozasi tomon yunaltirishi kabi xarakatlarni kuzatish mumkin. Bajariladigan xarakatlarning shakllanadigan pragrammaga mos kelishi xarakatning samarali bulishini ta'minlaydi, bu narsa ishchi organlar, ya'ni xarakat apparati xarakatning samarali bajarilishini ta'minlaydigan funktsiyani amalga oshishi bilan boglik. Ma'lumki, ishning bajarilishi davomida ishchi organlari (mushaklar, nafas, yurak tomirlari va boshkalar) ning funktsional xolati uzgaradi, ya'ni mushaklarning kuchi kamayadi, kuzgaluvchanlik utkaziuvchanlik xususiyatlari uzgaradi. Bu xolatlar bajarilayotgan ishning shakllangan dasturida chetga chikishiga olib keladi. Birok ishchi organlardagi yuzaga kelgan uzgarishlar xakida kayta boglanish orkali (mushakni ichki organlar va sensor sistemasi retseptorlarda) markaziy asab sistemasiga ma'lumot beriladi. Natijada asab sistemasi ishining samarali bajarilishini ta'minlaydigan dasturni yaratadi.

Ba'zi sport turlarida masalan, balandlikka sakrash, ogirlik kutarish, suvga sakrash kabi mashklar bajarilishda mashkni ikkinchi uchinchi marta takrorlashda yukori natijalar kuzatiladi. Bunga mashkni bajarish davomida asab sistemasi tomonidan ishchi organlarining (mushaklarining) funktsional xolati xakida ancha anik ma'lumotlar olish sabab buladi. buning uchun maxsus razminka muxim axamiyatga ega, chunki bunday razminka aynan mashk bajarilishi chogida ishtirok etadigan mushaklarning shu vaktdagi funktsional xolatini yaxshilaydi.

Xarakat malakalarida dinamik stereotipining yuzaga kelishi.

Xarakat malakasi kanday bulishidan kat'iy nazar buj uda oddiymi yoki murakkab xarakat elementlarini kompleksi shartli reflekslaridan iborat buladi. kishilarning mexnat yoki sport faoliyatida xarakatlarning elementlari ma'lum tartib bilan bir necha marta takrorlanishi xarakat reflekslarning ma'lum shakldagi zanjirini yuzaga kelitradi. Bu reflekslar zanjiri xarakatning dinamik stereotipideb yuritiladi.

Demak, xarakatning dinamik stereotipini yuzaga kelishi uchun xarakat bir xilda bir shaklda kup marta takrorlanishi kerak. Bu nuktai nazardan karalganda sportning ba'zi turlarida xarakatning dinamik stereotipining shaklanishi tez va oson boshkalariga aksincha bulishi ma'lum. Masalan, tsiklik dinamik ish bajariladigan sport turlarida (yurish, yugurish, suzish, changida yurish, eshkak eshash, velosipeda uchish,) va sport gimnastikasi, figurali uchish kabi vaziyatga boglik bulgan oldindan ma'lum bulgan dastur buyicha bajariladigan jismoniy mashklarda xarakatning dinamik stereotipi tez shakllanadi.

Atsiklik dinamik ishlarda ya'ni yakkama yakka olishuvlar sport uyinlari kabi yuzaga keladigan vaziyatga karab bajariladigan mashklarda xarakatning dinamik stereotipii tulik xolda, ish bajarilganda to tugaguncha shakllanmaydi. Bunday mashklarni bajarilishida mashklarning ayrim kesimlarga dinamik stereotipi yuzaga keladi.

Masalan, futbol sportida tupni uzining sheriklariga uzatish ximoya kilish yoki tupni darvozaga yunaltirish kabi malakalar uchun dinamik stereotipi xosil buladi. ma'lum vaziyatga boglik sport turlarida xamma vakt bir xilda ish bajarilmaydi, xarakat bir shaklda takrorlanmaydi. YUzaga kelgan vaziyatga karab sportchi uz xarakat faolityaini uzgartirishi kerak. SHunga uxshash boks yoki kurashni olib kuraylik, bokschi agar rakibini xarkatini va yuzaga kelgan vaziyatni xisobga olib uz faoliyatini uzgartirmasa, u zarb ostida koladi va galaba kila olmaydi.

Bunday sport turlarida xarakatning bir shaklda takrorlanmasligi mashk boshlanishdan to tugashigacha bulgan xarakat reflekslarining ma'lum tartibdagi zanjiri dinamik stereotipi ishlarini ta'minlay olmaydi.

Dinamik stereotipi shakllanishidan kura uni uzgartirish kuprok vakt talab etadi bu sport faoliyatida xarakat malakalarini shakllantirish va uni taksimlantirishda muxim ahamiyatga ega. Agar xarakat malakasi notugri shakllansa sportchiga xarakat texnikasi notugri uratilsa va bir kancha vakt davomida u xarakatni uratilgan shaklda bajarsa, endi uni tugirlash uchun juda kup vakt kerak buladi. Bordi-yu xarakat texnikasining tugri shakli uratilganda xam ba'zan juda xayajonli xolatlarda yoki vakt tigizligida ish bajarilishi lozim bulgan sharoitlarda xarakatning avvalgi shakli namoyon buladi, ya'ni xarakatni sportchi tomonidan beixtiyor oldingi shaklda bajarilishi kuzatiladi. SHuning uchun xam xar bir ustoz kasbga uratishda boshlashda xatoga yul kuymasligini xarakat malakasini tugri shakllanishi zarur.

Xarakat malakasini shakllanishida ekstrapolyatsiyaning roli.

Ekstrapolyatsiya organizmning xarakat funktsiyasi boshkarilayotganda yuzaga keladigan vaziyatlarni asab sistemasida orttirilgan tajribalar asosida xal etish kobiliyatidir. Kishining yashashi mehnat kilish shuningdek sport bilan shugullanish faoliyatlarida avvaldan ortirilgan, tajribalarni boshdan kechirgan sharoitlarni xayot faoliyatida yuzaga kelgan vaziyatlarni baxolash bajarilishi kerak bulgan xarakat vazifasining shakllantirishda kuyilgan talab reaksiyalarini amalga oshirishda muxim rol uynaydi sport faoliyatida sportchilarning mashk va musobakalar vaktida orttirilgan tajribalari uning keyingi faoliyatida yuzaga kelgan vaziyatga karab xarakat kilish imkoniyatini kengaytiradi, ya'ni sportchi ekstrapolyatsiya orkali xal kilishni kerak bulgan vazifani oson echadi. Masalan kup yillik stajga ega bulgan sportchi shaxmatchi musobakada yuzaga kelgan vaziyatni baxolash va shaxmat donalarini kanday xolda joylashtirish buyicha kanchalik kup ekstrapolyatsiyaga ega bulsa, u keyingi xarakatni shunchalik tez xal etadi va samarali natijaga erishadi. Keltirilgan misoldan shunday xulosa kilish mumkinki, oldin orttirilgan tajriba kanchalik xilma-xil kanchalik kup nusxaga kanchalik ega bulsa, ekstrapolyatsiya shuncha yaxshi buladi. shu bilan birga aytish kerakki, sportni ma'lum turi bilan shugullanishda orttirilgan tajribalar xarakat malakalari boshka sport turi bilan shugullanishda ekstrapolyatsiya imkoniyatini tajribalar oshira olmaydi. Masalan, sport uyinlaridan futbolda orttirilgan tajribalar boks yoki kurashdagi xarakat usullarini ekstrapolyatsiya yuli bilan kullashga etarli bulmaydi.

Xarakat malakalarini shakllanish fazalari.

Xarakat malakalarini shakllanishda asosan 3 ta katta faza farklanadi.

1. Irridatsiya
2. Konsentratsiya
3. Avtomatlash

Bir kecha-kunduz davomida ish qobiliyatining o'zgarishi.

Odamda fiziologik funktsiyalarning kecha-kunduz davomida tebranishini uzgartirish ancha kiyin buladi.

Fiziologik sistemalar ishining kecha-kunduz davomida uzgarishini aniklash sport faoliyatida ayniksa muxim axamiyatga ega. CHunki xozirgi paytda sportchilar juda katta xajmdagi va yukori tezlikdagi ishlar bilan kuniga 2-3 marta mashk kiladi. Buning uchun organizm ish faoliyatining yukori darajada bulishi muddatlarini aniklash va mashk vahtlarini shu muddatlar bilan belgilash zarur buladi.

Kupchilik musobaka kalendarida xozirgi ish dasturining eng shiddatli kismi ertalabki soatlarga 10-11 va kechki 17-19 soatlarga muljallanadi. Bioritmologiya buyicha bir kancha mutaxassislar fikriga kura kecha-kunduzning Ayni shu davrlari shaxsiy birinchiligini olish uchun eng kulay xisoblanadi.

Mashk kilish okibatida fiziologik funktsiyalar ritmning kayta kurulishi va ish kobiliyatining uzgarishi yuzaga kelishini maxsus tekshirishlar aniklangan.

YUkori xarakat aktivligi vegetativ funktsiyalarning davriyligini ancha uzgartirish bilan ularning soat 20 gacha pasaymasliga, ya'ni kecha-kunduzlik tsiklining aktiv davri uzayishini yuzaga keltiradi.

Bir kecha-kunduzdagi boshlanish va tugash soatlarining uzgarishi fiziologik jarayonlarning davom eitishga sezilarli ta'sir kursatadi. 2-3 soat fark kiladigan mintakalarni bosib utishdayok, odam organizmida funktsional xolatning uzgarishi kuzatiladi. 4-5 ayniksa, 7-8 saot fark kiladigan vakt mintakalariga tez utishida funktsiyalarning kecha-kunduzdagi ritmi ancha kup buziladi.

Jismoniy ish kobiliyatining kecha-kunduz davomidagi ritmi musobaka va shiddatli mashk kilish mashgulotlari ta'sirida kuchli uzgaradi. Odamda kunduzgi soatlarda ish kobiliyatining yukori, tundagi soatlarda esa past buladi. kupchilik kishilar kecha-kunduz davomida 2 marta ish kobiliyatiga ega buladilar. Birinchi davrda ertalab soat 8-12 gacha, ikkinchi soat 17-19 lar oasida buladi. bu vaktlarda odam eng kuchli bulib, organlarning sezuvchilanligi ortadi. Ertalabki soatlarda odam eshitadi, yaxshi kuradi bu funktsiyalar soat 2-5 va 13-15 larda juda yomonlashadi. Birok turli kunlarda ish kobiliyatini kecha-kunduzning xar bir vaktida uzgarishi mumkin, bu kishining uzini-uzi ishontirish yoki uzganing suzini ishonishi orkali sodir buladi.

Vakt mintakasi uzgarishi bilan organizmda ruy beradigan uzgarishlar kishilar shaxsiy xususiyatlariga, uning xayot tarzidagi dinamik stereotipga xam boglik buladi. shuning uchun xam turli shaxslarda xukukiy fiziologik funktsiyalarning uzgarishi xar xil darajada buladi.

8 mavzu:	Ayollarning sport mashqlari bilan shug'ullanishining fiziologik asoslari.
-----------------	--

8.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, ma'ruza axborot, munozara
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Ayollarda xarakat va vegetativ funksiyalarining xususiyatlari 2. Sport bilan shug'ullanishning ayollar organizmiga ta'siri 3. Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni ayollarning sport mashqlari bilan shug'ullanishining fiziologik asoslari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: - Ayollarning sport mashqlari bilan shug'ullanishining fiziologik asoslari ochib berish - Ayollarda xarakat va vegetativ funksiyalarining xususiyatlarini tushuntirish - Sport bilan shug'ullanishning ayollar organizmiga ta'siri bilan tanishtirish - Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlarini izoxlash va tasavvur xosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Ayollarda xarakat va vegetativ funksiyalarining xususiyatlarini izoxlaydi. - Sport bilan shug'ullanishning ayollar organizmiga ta'siri aytib berish. - Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlarini sanab beradi va izoxlaydi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Muloqot, sharxlovchi axborot, “ha-yo`q” texnikasi
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy majmua, tayanch konspekt.
O'qitish shakli	O'zaro xamkorlikga asoslangan.
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

8.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi talaba	
1 bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2 bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. -Xar xil balandlikdagi tog' sharoitlarida organizm funktsiyalarining qanday o'zgaradi? - Gipoksiya nima? - Gipoksiya turlarini ayting. - Tog' (balandlik) kasalligi belgilari - Biologik ritm nima? - Qanday biologik ritmlarni bilasiz? 2.2. Ayollarda xarakat va vegetativ funktsiyalarining xususiyatlari, sport bilan shug'ullanishning ayollar organizmiga ta'siri sharxlaydi. 2.3. Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlari ochib berishni davom etadi 4. a) Ayollarda xarakat va vegetativ funktsiyalari qanday o'zgaradi? b) Xayz ko'rish sikli organizm funktsiyalariga qanday ta'sir qiladi? s) Sport bilan shug'ullanish ayollar organizmiga qanday ta'sir ko'rsatadi. d) Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlarini ayting? kabi savollarni tushuntirib beradi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
3 bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Gipoksiya turlari va ularning fiziologik ta'rifi" vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Mavzu: Ayollarning sport mashqlari bilan shug'ullanishining fiziologik asoslari.

Reja:

1. Ayollarda xarakat va vegetativ funktsiyalarining xususiyatlari
2. Sport bilan shug'ullanishning ayollar organizmiga ta'siri
3. Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlari.

Xar xil yoshdagi qizlar va ayollarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi asosan ikkinta maqsadga qaratilgan bo'lib, ularning bittasi salomatlikni yaxshila bo'lsa, ikkinchisi sport sohasida erkaklar bilan yonma-yon turib, respublika shon-shuxratini himoya qilishda ishtirok etishdir. Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi bunday ayollar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu bir tamondan, respublikada sportning kun sayin rivojlanayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tamondan, bu narsa xayot faoliyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Shuni xam aytish kerakki, qizlar va ayollar organizmining ish qobiliyati erkaklarning ish qobiliyatidan bir muncha past darajada bo'ladi, bu ayollar organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun ayollarning salomatligini yaxshilash, yoki ularning sportda yuqori natijalarga erishadigan xolatga keltirish uchun beriladigan jismoniy mashqlar xajmini optimal darajada belgilamay turib, qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Beriladigan jismoniy ish xajmini belgilash esa yuqorida aytilgandek, ayollar organizmining tuzilishi va funktsional xususiyatlari bilan qattiq bog'langan bo'ladi. Ayniqsa sport musobaqalariga tayyorlashda ayollar organizmining anatomik va fiziologik xususiyatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega, aks holda ularning salomatligini yomonlashishga, xatto ularni bir umr nogiron bo'lib qolishga olib kelishi mumkin. Buning uchun ayollar sportini olib boruvchi xar bir mutaxassis, xar bir ustoz qolaversa sport bilan shug'ullanuvchi har bir ayol ayollar organizmining jismoniy imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur.

Ayollarda xarakat va vegetativ funktsiyalarining xususiyatlari

Ayollar organizmini ta'riflash uchun uni erkaklar organizmi bilan ya'ni uning fiziologik sistemalari, a'zolar tuzilishi, ishi, jismoniy imkoniyatlari bilan taqqoslab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunga ko'ra ayollarning bo'yi o'rtacha hisobda 161 sm bo'lib, erkaklarda 172 smni tashkil etadi. Ko'krak qafasi erkaklardagiga nisbatan ayollarda qisqa, keng bo'lib, diafragma ancha yuqori joylashgan bo'ladi. Ayollarning oyoq qo'llari ham erkaklarnikiga nisbatan qisqa ammo ularning umurtqa pag'onasi uzun bo'ladi. Chunki ayrim umurtqalarning orasidagi tirqish keng va umurtqalararo diskalar qalin bo'ladi. Ayniqsa, ayollarda umurtqa pag'onasining bel va bo'yin qismlari erkaklarnikiga nisbatan uzunroqdir. Umurtqalarni tutashtiruvchi boylamlar ancha elastik bo'lib, bu hol ayollarning erkaklarga nisbatan ko'proq egiluvchan bo'lishini ta'minlaydi.

Ayollar bilan erkaklar o'rtasidagi ko'proq ko'zga tashlanadigan farq bu ularning elka va toslarning tuzilishidir. Ya'ni ayollarda elka kengligi kichik, tos kengligi esa erkaklarga nisbatan keng bo'ladi. Umuman ayollar skeleti erkaklardagiga qaraganda nozikroq, engilroq va xarakatchan bo'ladi.

Ayollarda erkaklarga nisbatan muskul to'qimasi kam bo'lib, yog' to'qimasi aksincha ko'p bo'ladi. O'rtacha hisobda ayollar vaznining 30-35 % ni muskul to'qimasi, 28-30 % ni

yog' tashkil etadi. Erkaklarda esa gavda vazninin 40-45 % muskul to'qimasidan 18-20 % yog' to'qimasidan iborat. Ayollar va erkaklar muskul to'qimasi yuqoridagi miqdorida bo'lgan sababli ayollar kuchi erkaklarnikiga nisbatan ancha kam bo'ladi.

Markaziy asab sistemasi faoliyatida xam jinsiy farq mavjud. Maxsus xarakat reaksiyalavrining tezligi erkaklarnikiga nisbatan past bo'ladi, lekin markaziy asab sistemasi tamonidan muskullar taranglanishini farqlashda juda ko'p ko'rsatkichlar erkaklardagiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.

Ayollar yuqori darajada xayajonlanishga ya'ni yuqori sezuvchanlikka ega bo'ladi, biroq ularning organizmi erkaklarga qaraganda kam funktsional imkoniyatga ega, bu narsani jismoniy ishlar rejalashtirilayotganda albatta xisobga olish zarur. Vegetativ funktsiyalarning borishi xam ayollarda erkaklardakiga qaraganda boshqacha buladi. Masalan, gavda vaznining birligiga nisbatan xarakatdagi qon miqdori ayollarda kam bo'ladi. Ya'ni gavda vaznining 1 kg ga ayollarda 65 ml, erkaklarda esa 75 ml to'g'ri keladi. Ayollar qonidagi suvning miqdori 80,1 % ni, erkaklar qonida 78,1 % ni tashkil etadi. Qon tarkibidagi eritrotsitlar ayollar qonining 1 ml³ xajmida 4-4,5 mln dona bo'lib erkaklar qonining shunday xajmida ular 4,5-5 mln donaga tengdir. Gemogloblin miqdori ayollar qonida 12,5-14 gr 5 bo'lsa, erkaklar qonida 14-16 gr ni tashkil etadi. Qizil qon tanachalarining ya'ni eritrotsitlar va gemogloblin miqdorining ayollar qonida erkaklardagiga nisbatan kam bo'lishi organizm to'qimalarning kislorod bilan ta'minlanishida ayniqsa jismoniy ish bajarayotganida moddalar almashinuvining borishida aks etadi. Yani bu jarayonlar erakalardagiga nisbatan ancha past bo'ladi. Eritrotsitlarning cho'kish reaksiyasi (EChR) erkaklarda soatiga 2-3 mm bo'lsa, ayollarda 9-12 mm ni tashkil etadi.

Erkaklar bilan ayollar organizmi xususiyatlaridagi farq qon aylanish organlarining tuzilishi va ularning faoliyatida xam ko'rinadi. Yurakning vazni va xajmi xam ayollarda erkaklarga nisbatan bir muncha kam bo'ladi, shunga mos xolda uning sitolik va daqiqalik xajmi xam kichikdir. Lekin yurakning bir daqiqadagi qisqarish soni erkaklardagiga qaraganda 8-10 marta ko'p buladi. Muntazam mashq qilish ta'sirida tomir urishi bir muncha sekinlashadi, lekin erkaklarnikiga qaraganda baribir ortiq bo'ladi. Jismoniy ish bajarishda yurakning daqiqalik xajmi erkaklarda 37 l ga etishi mumkin, ayollarda esa u 25 l dan oshmaydi.

Nafas organlarning tuzilishi va funktsiyasida xam ayollar bilan erkaklarda qator farq ko'riladi. Masalan, ayollarda o'pkaning umumiy sig'imi, funktsional qoldiq sig'imi, nafas chiqarishning rezerv xajmi va nafas havosining xajmi erkaklardagiga nisbatan kam. Erkaklarda o'pkaning tiriklik sig'imi 7-8 l gacha va undan ortishi mumkin. Ayollarda esa 5-6 l gacha boradi. O'pkaning tiriklik sig'imi o'rtacha xisobda 3,5-4,5 l ni tashkil etadi. Nafas olish soni ayollarda bir daqiqada erkaklar nafas olish sonidan 4-5 marta ortiq bo'ladi.

Ayollar bilan erkaklarning qon aylanish va nafas funktsiyalardagi farq muskul ishi bajarilishida yana xam sezilarli bo'ladi. Masalan, ular bir xildagi ishni bajarganda ayollarning yurak faoliyati va o'pka ventilyatsiyasining kuchayishi erkaklardagiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi, biroq ish unumi kamroq bo'ladi.

Tana xarorati boshqarilganda xam ayollar organizmining tuzilishi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ayollarda teri osti yog' klechatkasining erkaklardagiga nisbatan ancha qalin bo'lishi issiq yo'qotilishini bir muncha cheklaydi. Bu narsa tashqi xarorat yuqori bo'lgan sharoitlarda sport mashqini olib borishda muxim rol o'ynaydi.

Ayollar organizmining morfologik va funktsional xususiyatlari qatorida yana bir muxim jarayoni ko'rsatish zarur. Bu jarayon ayollardagi xar 28 kunda (normal xolatda) o'tadigan xayz ko'rish (menstruatsiya) siklidir. Xayz ko'rish oldidan va xayz ko'rish

davrida xamda undan keyingi davrlarda ayollar organizmida yuz beradigan funktsional o'zgarishlar ayollarning ish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sport bilan shug'ullanishning ayollar organizmiga ta'siri

Sportning ayrim turlari bo'yicha ayollar erkaklarga nisbatan yaxshiroq natijalar ko'rsatadilar. Ayollar qator anatomik va fiziologik ko'rsatkichlar bo'yicha erkaklarga tenglasha olmasalar xam yuksak uyg'unlik iroda va egiluvchanlik xislatlarini talab qiluvchi mashqlarni bajarishda erkaklardan ustun turadilar. Ularning muskul kuchi nisbatan kam bo'lsa xam, jismoniy mashqlarni bajarishda, kuchlanishni katta maxorat bilan juda ko'p muskul guruxlariga barobar taqsimlay oladilar. Shu sababli ayollar xarakati ancha nozik, tekis, muloyim, aniq va chiroyli ifodalangan bo'ladi.

Ayollar organizmining tuzilishi va funktsional xususiyatlari yuqori kuch bilan bajariladigan yoki yuqori darajada chidamlilik talab qiladigan ishlarni bajarishga imkoniyat bermaydi. Masalan, erkaklarga nisbatan ularning qon tarkibida eritrotsitlarning, gemoglobinning, qon kislorod sig'iminining kam bo'lishi, yurak xajmining kichikligi, o'pkaning tiriklik sig'iminining, nafasning daqiqalik xajmining kamligi uzoq muddatli ishlarni bajarish imkoniyatini cheklaydi. Shunday qilib, ayollar organizmining aerob imkoniyati erkaklarga nisbatan kam bo'ladi.

Ayollar bilan erkaklarning jismoniy ish qobiliyati o'rtasidagi farq bir xil xajmdagi ishlarni bajarishda nafas olish va qon aylanish sistemalari funktsiyasining o'zgarishida xam namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda ayollar yuragining vaqt birligida qisqarish soni erkaklardagiga nisbatan ancha ortiq bo'ladi. O'pka ventilyatsiyasining ortishi nafas olish tezligi va chuqurligining kam samarali ko'payishi orqali yuzaga keladi. Ayollarda kislorodning maksimal o'zlashtirish erkaklarga nisbatan 25-30 % kam bo'ladi. MKO' ayollarda 20-30 yoshlarda eng yuqori darajada bo'ladi.

MKO' ni ta'minlaydigan nafas olish va qon aylanish funktsiyalarining bir-biriga muvofiqligini bildiruvchi muxim ko'rsatkich kislorod pulsining darajasidir. Ayollarda bu ko'rsatkich 16-20 ml ni tashkil etadi, erkaklarda esa u 20-30 % ortiqroq bo'ladi.

Ayollarning anaerob ish qobiliyati xam erkaklarga nisbatan kamroq bo'ladi. Bu xol kislorod qarzi to'planishida ifodalanadi, ya'ni ayollarda kislorod qarzi kam miqdorda bo'ladi. Ayollarda ishqor zaxirasining erkaklardagiga nisbatan kam bo'lishi, shiddatli muskul faoliyatida ichki muxit turg'unligini saqlashni qiyinlashtiradi buning oqibatida ayollar shiddatli ishlarni erkaklarga qaraganda kamroq davom ettira oladilar.

Muskul kuchining ayollarda erkaklarga nisbatan past bo'lishi statik kuchlanishli mashqlarni bajarishda ayollar organizmida noxush reaksiyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Jismoniy ishlarni rejalashtirishda ayollarning qattiq xayajonlanishga, yuqori sezuvchanlikga molik ekanligini, ulardagi funktsional imkoniyatning erkaklarga nisbatan kamligini albatta hisobga olish zarur.

Ayollarning sport bilan muntazam shug'ullanishi natijasida ular organizmining tuzilishi va funktsiyasida ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelgani kuzatilgan. Jismoniy mashqlarning to'g'ri qo'llash ularning xajmini to'g'ri belgilashda kuch, chidamlilik, xarakat uyg'unligi takomillashadi. Gavda tarkibida yog' to'qimasi kamayadi. Muskullar boylamlar rivojlanadi, o'pkaning tiriklik sig'imi ortadi, nafas olish tezligi kamayadi, yurak urishi sekinlashadi, energiya sarfi kamayadi, organizmning turli kasalliklarga chidamliligi ortadi, ish qobiliyati yaxshilanadi, qomat go'zallashadi, xomiladorlik davrida u o'zini yaxshi xis etadi, bola tug'ishi oson bo'ladi. Ayollar organizmida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga

kelishida, ularning gimnastika mashqlari bilan shug'ullanishi aloxida ahamiyatga ega. Ayniqsa hozirgi vaqtda ritmik gimnastikaning kegn yoyilishi bu fikrimizga dalil bo'ladi. Ayni paytda ayollar bilan sport mashqi olib borilganda, beriladigan nagruzkaniing xajmiga aloxida e'tibor berish kerakligini xam unutmaslik zarur. Sport mashqining fiziologik printsiplariga qat'iy rioya qilgan holda, xar bir sportchi ayolning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlari.

Ayollar umrining xar bir davri morfologik va funktsiyaonal jixatdan xususiyatlarga ega, bularni sport mashqlari bilan shug'ullanganda albatta xisobga olish zarur. Umr davrlarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: bolalik davri, balog'atga etish davri, jinsiy etuklik davri, (bu davrning o'zi 25 yoshgacha kichik, 25 bilan 40 yosh orasi, o'rta va 40 bilan 50 yosh orasi o'tish yoki "klimakterik" yosh bosqichlariga bo'linadi), katta yoshlik davri (50-60 yosh va qrilik davri 60 dan yuqori).

Organizm tug'ilganidan to qariguncha sekin asta o'zgarib boradi. Bu o'zgarishning ba'zilar ma'lum yoshgacha sezilarli darajada bo'lmaydi, lekin keyincha keskin yuzaga chiqadi. Ayollarda keskin o'zgarish 40 yoshdan keyin bo'ladi.

Organizmida yosh o'tishi bilan bo'ladigan o'zgarishlar ko'pincha markaziy asab sistemasi faoliyatining buzilishidan boshlanadi. Nevroz yuzaga kela boshlaydi, xotira susayadi, yangi mashqlar va xarakat malakalarini o'zlashtirish qobiliyati pasayadi, xarakati uyg'unligining buzilishi, tez charchash yuzaga keladi. Ayollarning 50 % da asab buzilishi kuzatiladi. Yurak tomir va nafas sistemalarining funktsiyasi o'zgaradi, tomir urishi tezlashadi, qon bosimi ortadi, qonning oqish tezligi va uning daqiqalik xajmi kamayadi.

Tashqi nafas olish ko'rsatkichlarida yana xam yaqqolroq o'zgarishlar sodir bo'ladi: nafas olish tezligi ortadi o'pkaning tiriklik sig'imi 1-1,5 l ga, o'pka ventilyatsiyasi esa 30 l va undan xam ko'proqqa xam kamayadi. Ichki sekretiya bezlarining faoliyati keskin pasayadi. Bu davrda ayollarda xayz ko'rish davri tugaydi. Tuxumdonlarning kattaligi va og'irligi kamayadi. Ular biriktiruv to'qimasiga aylanadi, falikulalar etilishi va sariq tana xosil bo'lishi to'xtaydi, bachadon og'irligi kamayadi. Uning devori yupqalashadi, shilimshiq parda qurib faoliyat qobiliyatini yo'qotadi, qin bujmayadi, kichiklashadi. Estrogenlar xosil bo'lishi, progestron ajralishi to'xtaydi. Vegetativ funktsiyalarning turlicha buzilishlari bosh miyaning tepalik osti qismlari va vegetativ asab sistemasining boshqa markazlari funktsiyasini izdan chiqishi oqibatida sodir bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan o'zgarishlar moddalar almashinuvining va oksidlanish jarayonlarining buzilishiga olib keladi, natijada nafaqat teri ostidagi biriktiruvchi to'qimada shuningdek ichki organlarda va muskul to'qimalarida xam yog' to'planishi yuzaga keladi. Bu narsa organlar faoliyatini izdan chiqaradi.

Qondagi xolistrin miqdori odam organizmidagi almashinuv jarayonlarining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Yosh kattalashgan sari xolistrinning miqdori ko'payadi, qon tarkibida ortiqcha xolistrin bo'lishi arterosklerotik o'zgarishlarga sabab bo'ladi degan muloxaza bor. Ba'zi dalillarga qaraganda 30 yoshli ayollarda xolistrin miqdori 163 – 170 mg %, 40 yoshdan keyin 200 mg % gacha ortgani aniqlangan 50 yoshdan so'ng organizmni xamma sistemalarida yosh o'zgarishlari yuzaga kela boshlaydi.

Suyak bo'g'im apparatidagi o'zgarishlar bo'g'imlarni qoplab turadigan tog'ay to'qimasidan boshlanadi. Tog'ayning elastikligi yo'qoladi, bujmaya boshlaydi, oxak tuzlari bilan to'yinib, asta sekin suyakga aylanadi. Buni natijasida bo'g'inlar xarakati buziladi.

Muskul tolalarining elastikligi yo`qolib, muskullar, “sinuvchan” bo`lib qoladi, muskul kuchi kamayadi. Yosh ulg`ayishi bilan qomat xam o`zgaradi, bukchayadi, elkalar chiqadi. Ko`krak qafasidagi a`zolar (yurak, yirik qon tomirlar, o`pka va boshqalar) ning ishlashi susayadi.

Oshqozon ichak muskullarining qovjirashi natijasida ularning funktsiyasi o`zgarib ichaklarda xavo to`planadi va qorin shisha boshlaydi. Bu o`zgarishlar oshqozon va ichak devoridagi bezlar faoliyatining pasayishi bilan yana xam zo`rayadi.

Siydik ajratish sistemasidagi (buyraklar, siydik yo`llari, siydik pufagi va boshqalar) xamda jinsiy organlarning (bachadon, qin) tayanch boylam apparatidagi o`zgarishlar oqibatida ularning yallig`lanishi va ichki jinsiy organlarning joyidan siljishi yuzaga keladi.

Yuqorida ko`rsatilgan yosh o`tishi bilan yuzaga keladigan o`zgarishlar organizmning salomatligiga, asabning qanchalik mustaxkamligiga, yashash va mehnat sharoitiga, dam olish, ovqatlanish, gigienik qoidalarga qay darajada rioya qilishiga va xarakat aktivligiga ya`ni ayollarning jismoniy tarbiya va sport bilan qanday shug`ullanishiga qarab erta yoki kech boshlanishi mumkin.

Ayollarning jismoniy mashqlar bilan shug`ullanish ta`sirida ular organizmida yuzaga keladigan o`zgarishlarning muntazam takrorlanishi muskul ishiga muvofiqlashishni shakllantiradi. Bu jarayon xarakat apparati tuzilishining puxtalanishi, kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarning rivojlanishi bilan kuzatiladi. Xarakat apparatida bo`g`imlar xarakatchanligining boylamlarning mustaxkamlanishi, muskullar tonusining ortishi, ichki organlar ishining rivojlanishi, boshqaruvchi mexanizmlar funktsiyasining takomillashishi, ish qobiliyatini, salomatlikni saqlashda muxim ahamiyatga ega. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, ayol organizmining o`ziga xos imkoniyatlarini xisobga olgan holda, optimal xajmdagi jismoniy mashqlar bilan shug`ullanishgina ijobiy ta`sir ko`rsatadi, organizmda mehnat qobiliyatining uzoq vaqt saqlanishi qarilik davrining kech boshlanishiga imkon yaratadi.

9 mavzu:	Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning fiziologik asoslari.
----------	---

9.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, ma'ruza axborot, munozara
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Xozirgi zamon xayotida jismoniy mashqlarning ahamiyati 2. Yoqimsiz omillarga organizmning chidamliligi ortishida jismoniy mashqlarning ahamiyati. 3. Ertalabki gigienik gimnastikaning organizmga ta'siri.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning fiziologik asoslari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: - Xozirgi zamon xayotida jismoniy mashqlarning ahamiyatini ochib berish - Yoqimsiz omillarga organizmning chidamliligi ortishida jismoniy mashqlarning ahamiyati bilan tanishtirish - Ertalabki gigienik gimnastikaning organizmga ta'sirini asoslash.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Xozirgi zamon xayotida jismoniy mashqlarning ahamiyatini aytib berish. - Yoqimsiz omillarga organizmning chidamliligi ortishida jismoniy mashqlarning ahamiyatini izoxlash - Ertalabki gigienik gimnastikaning organizmga ta'sirini tavsiflash.
O'qitish uslubi va texnikasi	Muloqot, sharxlovchi axborot, “ha-yo`q” texnikasi
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy majmua, tayanch konspekt.
O'qitish shakli	O'zaro xamkorlikga asoslangan.
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

9.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi talaba	
1 bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2 bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Ayollarda xarakat va vegetativ funktsiyalari qanday o'zgaradi? - Xayz ko'rish sikli organizm funktsiyalariga qanday ta'sir qiladi? - Sport bilan shug'ullanish ayollar organizmiga qanday ta'sir ko'rsatadi. - Ayollar organizmida yoshga qarab o'zgarish jixatlarini ayting? 2.2. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning fiziologik asoslarini sharxlaydi. 2.3. Xozirgi zamon xayotida jismoniy mashqlarning ahamiyatini davom qiladi. a) Sport mashqida yosh sportchilardagi funktsional o'zgarishlar qanday o'zgarishlar? b) Sport faoliyatida yuzaga keladigan qanday fiziologik xolatlarni bilasiz? s) Sportchini sportga mo'ljallash deganda nimani tushunasiz? d) Yosh sportchi sportga qanday tanlanadi? kabi savollarni tushuntirib beradi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
3 bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Odamning biologik ritmlari" vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Mavzu: Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning fiziologik asoslari.

Reja:

- 1. Xozirgi zamon xayotida jismoniy mashqlarning ahamiyati**
- 2. Yoqimsiz omillarga organizmning chidamliligi ortishida jismoniy mashqlarning ahamiyati.**
- 3. Ertalabki gigenik gimnastikaning organizmga ta'siri.**

Xarakat odam va xayvon xayotining asosiy shartlaridan biridir. Xarakat omili ularning faqat tashqi ko'rinishlarini shakllantiribgina qolmay, balki ko'p million yillar davomida organizmning biologik jixatdan to'liq bo'lishida aloxida ahamiyatga ega bo'lgan.

Odamning xar qanday faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan 4 ta komponent (ruhiy, neyrodinamik, xarakat va energiya) bilan ta'minlanadi. Bu komponentlar foydali natijaga erishish uchun yo'naltirilgan markaziy asab funktsional sistemalari uyushmasi orqali dinamik tarzda bog'lanadi. Xar qanday faoliyat boshlanishida spetsifik bo'lmagan aktivlanishga ega bo'lgan miya qurilmalarning ma'lum maqsad bilan qo'zg'alish natijasida affirent sintezni va bo'ladigan faoliyatini energiya bilan ta'minlash mexanizmlarni ishga tushiradi. Bu faoliyat dasturini to'g'irlash mexanizmlari xam samotik xam vegetativ funktsiyalar tamonidan amalga oshadi. Ishlayotgan skelet muskullari va ichki organlarning retseptorlaridan kelayotgan qayta ma'lumotlar to'g'rilanish manbai bo'ladi. Faoliyat dasturi qanchalik murakkab bo'lsa, afferent sintez jarayoni shuningdek faoliyatning energiya va xarkat komponentlari shunchalik tez bo'ladi. Bularning xammasi ixtiyoriy faoliyatdagi xamma komponentlarning o'zaro ta'sirini takomillashtiradi.

Bu borada xarakat aktivligi tezligiga tayanch apparatining strukturasi bog'liq ekanligi yaxshi o'rganilgan markaziy asab sistemasining yuqori bo'limlarida bo'ladigan asosiy asab jarayonlari ularning po'stloqdagi dinamikasining boshqarilish manbai xarakat ekanligi I.P.Pavlov va uning xodimlari tomonidan aniqlangan.

Texnikaning rivojlanishi xozirgi zamon kishisining turmush tarzini ancha o'zgartirgan. Ishlab chiqarish va maishiy xayotning keng ko'lamda mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, turli xarakat vositalarini takomillashtirish, yangi takomillashgan texnikadan foydalanish, insonning mehnat va turmush faoliyatini qayta ko'rilishiga sabab bo'ldi. Qo'l mexnati ishlab chiqarish va turmushdagi jismoniy kuchlanishlar ancha kamayadi. Akademik Berg dallilariga ko'ra ishlab chiqarishdagi muskul energiya 90 % dan 1 % ga qichqargan bu narsa xarakat faolligining pasayishiga olib keldi, bunda xarakat faoliyatining umumiy xajmiga nisbatan ko'p bo'lmagan statik kuchlanishlar ortadi. shu bilan bir qatorda xozirgi zamon kishisining xayoti jismoniy kuchlanishlardan butunlay xoli deb xam bo'lmaydi. Odam organizmini o'rab turgan muxitning yangi ta'sirlari, ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelayotgan xodisalar bilan to'qnashadi, ularga moslashish kerak bo'ladi. Qator xolatlarda juda yuqori kuch, chidamlilik xarakat tezligi va epchillik talab qilinadi, buning uchun inson jismonan yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak.

Ikkinchi tomondan ishlab chiqarishda va jamiyatda mexnatning aqliy shakli ilmiy ma'lumotlar xajmining ortishi, ularning ishlanish murakkabligi, qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy qiymatining ortishi va ularni bajarish ma'suliyatining kuchayishi aqliy mexnatning ortishiga sabab bo'ladi. Bularning xammasi surunkali asab xayajon kuchlanishga olib keladi.

Yuqorida ko'rsatilganlaridan xulosa qilib shuni aytish kerakki, kishining salomatligi va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda xarakat muxim ahamiyatga ega. Insonning xarakat aktivligining xar qanday yo'l bilan chegaralanishi salomatlikning yomonlashishiga, mehnat unumining pasayishiga va nixoyat kishi umrining qisqarishiga sabab bo'ladi.

Yoqimsiz omillarga organizmning chidamliligi ortishida jismoniy mashqlarning ahamiyati.

Tadqiqotlarda isbotlanishicha, odam organizmiga jismoniy mashqlarning ta'siri xar xil yoshda turlicha bo'ladi. Bolalik va yoshlik davrlarida mashqlar organizmning rivojlanishiga, o'rta yosh, qarilikda ish qobiliyatining ortishiga va kuchning faol xolda saqlanishiga ta'sir etadi. Shuni ko'rsatish kerakki, jismoniy mashqlar xamma yoshda xam salomatlikni mustaxkamlaydi. Jismoniy mashqlarning fiziologik moxiyati organizmning xarakat funksiyasini ta'minlaydigan va tashqi xamda ichki muxitning turli ta'sirlariga qarab organizmning o'zgaruvchan chidamliligani ko'rsatadigan reaksiyalarni baxolashda namoyon bo'ladi. Jismoniy ishga organizm qator fiziologik, morfologik va ruxiy jarayonlar bilan javob beradi. Bu jarayonlar ixtiyoriy muskul faolliyatida xamma (ruxiy, neyrodinamik, energiya va xarakat) komponentlarining qay tarzda o'zgarishiga bog'liq. Jismolnii mashqlarning ongli ravishda bajarilishi ruxiy komponent faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu qator ruxiy sifatlar (qabul qilish, diqqat, xotira, ruxiy ish qobiliyati va boshqalar) o'tkirligining takomilashishida ifodalanadi.

Bosh miya yarim sharlari po'stlog'idagi jarayonlar muskul faoliyatini uyushtiruvchi omil bo'lgani sababli muntazam jismoniy mashqlar neyrodinamik komponentning ijobiy qayta qurilishi bilan kuzatiladi. Qo'zg'aluvchanlik asab jarayonlarning xarakatchanligi va turg'unligi ortadi, organizmning emotsional kuchlanishini boshqarish takomillashadi. Shu bilan bir vaqtda, asab muskul sistemasi funksional xolati (xarakat komponenti) ning o'zgarishi yuzaga keladi, muskul kuchi va uni qisqarish tezligi ortadi, muskul sezgisidagi tafovut yaxshilanadi. Bu barcha o'zgarishlar faoliyatning yangi funksional sisteamsining ancha oson shakllanishi, yangi xarakat malakalarining hosil bo'lishi, ularni mehnat va turmushda maqsadga muvofiq qo'llanishi uchun sharoit yaratadi.

Yuqoridagi komponentlar bilan o'zaro yaqin aloqador bo'lish natijasida energiya komponentlarining qayta qurilishi yuzaga keladi; yurak muskullarining funksional imkoniyatlari ortadi, jismoniy ishda qonning sistolik va daqiqalik xajmi ko'payadi, tomir urishi soni kamayadi, qon yurishi va kapilyarlarda qon aylanishining boshqarilishi ancha takomillashadi, o'pkanining tiriklik sig'imi va o'pka vetelyatsiyasi ancha ortadi. Jismoniy mashqlar ta'sirida ichki sekretiya bezlarining ishi, organizmdagi metabolik jarayonlarining boshqarilishi takomillashadi, moddalar almashinuvi kuchayadi.

Xarakat faoliyatini tak'minlaydigan xarakat funksiyasi vegetativ va ruhiy funksiyalarining ancha rivojlanishi organizmning tashqi va ichki muxitdagi noxush omillarga chidamliligini oshiradigan qayta qurilish jarayoniga olib keladi. Organizmning yoqimsiz omillariga chidamliligining ortishi 2 ta o'ziga xos va xos bo'lmagan usullar bilan yuzaga keladi. O'ziga xos bo'lgan usulda organizmning mazkur ta'sirning o'ziga chidamliligi ortadi. Xos bo'lmagan (nospetsifik) usulda, bir omil ta'sirida boshqa omillarga infektsiyaga, gipoksemiyaga va xokazolarga organizmning chidamliligi ortadi.

Organizmning nospetsifik chidamliligini oshiradigan omillar ancha ko'p: organizmga farmakologik moddalar (vitaminlar, jen-shen va shunga o'xshashlar) kiritish, muskul

ishlarni bajarish, organizmning sovuqqotishi, gipoksiya, qon yo`qotish va boshqalar shular jumlasidandir.

Organizm chidamliligini oshirishning eng qulay nospetsefik usuli jismoniy mashqlar bilan shug`ullanishdir. Jismoniy mashqlar ta'sirida organizm chidamliligining ortishi "ko`chish" xodisalari bilan ya'ni organizmning boshqa reaksiya turlarida xosil qilingan qandaydir xususiyatni qo`llanishi bilan bog`liq bo`ladi.

Jismoniy mashqlar bilan shug`ullanishda kishining ruxiy funktsiyalaridan va vegetativ funktsiyalarining nisbatida qator "ko`chish" xodisalari namoyon bo`lib, ular organizmda chidamlilikning ortishi uchun sharoit yaratadi. Masalan, "ko`chish" xodisasi gipoksemiyaga, zaxarli moddalar ta'siriga, qonning immun biologik xususiyatini oshirish yo`li bilan vujudga kelgan kasalliklarga, nurlanishga, issiq va sovuq ta'siriga organizmning chidamliligini oshiradi.

Yuqori va past xarorat ta'sirida jismoniy mashqlarning qo`shilishi organizmning nospetsifik chidamliligini oshiradi. Ya'ni xarakatni va vegetativ funktsiyalarni takomillashtiradi, bu organizmning kasallikka berilmasligini kuchaytiradi; noxush omillarga organizm chidamliligini oshiradi; organizmning jismonan charchashini pasaytiradi ya'ni charchashga qarshilikni kuchaytiradi, salomatlikni mustaxkamlaydi.

Ertalabki gigienik gimnastikaning organizmga ta'siri.

Fiziologik sistemalar funktsiyasi kecha-kunduz davomida ma'lum bir chegarada tebranadi. Fiziologik funktsiyalarning eng pasaygan davri charchash rivojlanagnda va uyqudan turganda kuzatiladi. Bu erda shuni ta'kidlash kerakki, kishining turmush tartibiga, uningkecha-kunduz davomidagi ish rejimiga qarab yashash sharoitida shartli reflekslar sistemasi dinamik stereotip hosil bo`ladi. Shunga asosan, kishining faol mehnat qiladigan soatlarida ish qobiliyati yuqori va fiziologik funktsiyalar rivojlangan bo`lib, dam olish, uxlash soatlarida organ va sistemalar ishi sekinlashadi, kishining ish qobiliyati past bo`ladi.

Uyqu vaqtida vegetativ funktsiyalarga parasimpatik asabning ta'siri ortadi. natijada xamma fiziologik jarayonlar tejamli ish rejimiga o`tadi. O`pka ventilyatsiyasi kamayadi, yurak urishi sekinlashadi, arteriya qon bosimi pasayadi, muskullar bo`shashadi, moddalar almashinuvi minimal darajaga tushadi, tana xarorati pasayadi, to`qima va organlarda to`qima oraliq suyuqligining xarakati sekinlashadi. Markaziy asab sistemasining po`stloq va ba'zi po`stloq osti qismlari tormozlangan xolatda bo`ladi. Shuning uchun organizm unchalik kuchli bo`lmagan ta'sirlarga uyqu vaqtida javob bermaydi.

Ertalab kishi uyqudan turganida yuzi ko`pchigan, ko`z, qovoqlari shishgan, xarakat aktivlagi past bo`ladi. Organizm bunday xolatda bo`lganida ish qobiliyatining ko`tarilishini, ishga kirishib ketish ancha ko`p vaqttni talab qiladi.

Ertalabki gigienik gimnastika mashqlari bajarilganda, uyqudan keyin organizmning ish qobiliyati tez ortadi, ishga kirishib olish vaqti qisqaradi. Sportning bu turi bilan muntazam shug`ullanadigan kishilarda mashqlarni bajarish tufayli yuzaga kelgan o`zgarishlar butun kun bo`yi ish qobiliyatining yaxshi bo`lishini ta'minlaydi.

Uyqudan turganda, markaziy asab sistemasidagi tormozlanish bir necha daqiqa, xatto soat davomida yo`qolmaydi, shuning uchun kattalar, ko`proq bolalarga, xali xam uyqudan ko`zing ochilmadimi, deb bekorga aytmaydilar. Retseptor zonalaridan markaziy asab sistemasiga kelayotgan impulslar qanchalik tez va qanchalik ko`p bo`lsa, asab sistemasining qo`zg`aluvchanligi va organizmning ish qobiliyati shunchalik tez ortadi. markaziy asab sistemasiga kelayotgan impulslar oqimi qanchalik kam bo`lsa, uning qo`zg`aluvchanligi

shunchalik pasayadi. Ertalabki jismoniy mashqlarni bajarishda, markaziy asab sistemasiga analizatorlardan, ayniqsa proprioretseptorlarda kelayotgan kuchli impuls oqimi markaziy asab sistemasining qo'zg'aluvchanligini tez oshirib, normal ish qobiliyatini tiklaydi. Ertalabki gigienik gimnastika mashqlaridan keyin yuvinish, sochiqni xo'llab artinish kabi omillar teridagi retseptorlarga ta'sir etish bilan markaziy asab sistemasiga boradigan impuls oqimini yana ham kuchaytiradi.

Markaziy asab sistemasining normal ish qobiliyati tiklanishi bilan vegetativ organlar ishini boshqarish ham o'zgaradi. Natijada yurak tomir, nafas organlarining ishi tezlashadi, moddalar almashinuvi kuchayadi, to'qimalarning qon bilan ta'minlanishi ortadi, xarakat apparati ishinin boshqarilishi yaxshilanadi, to'qimalarning labilligi ortadi va xokazo. Organizmda yuzaga kelgan bunday o'zgarishlar ish qobiliyatining ko'tarilishini ta'minlaydi.

Ertalabki gigienik gimnastika mashqlari, eng avvalo xech bir kishi uchun charchatarli darajada og'ir bo'lmasligi kerak. Shuning uchun sportning bu turi bilan shug'ullanishda kishi o'zining jismoniy imkoniyatini hisobga olgan holda shug'ullanish kerak.

Ertalabki mashqlarni charchaguncha bajarish organizmning ishga kirishib olish vaqtini ko'paytiradi, ish qobiliyatini pasaytiradi, ish unumini kamaytiradi.

Ertalabki gigienik gimnastikaning ahamiyati faqat uyqudan keyin ish qobiliyatini oshirish, ishga kirishib olish vaqtini qisqartirish bilan chegaralanmaydi. Ayniqsa, katta yoshdagi kishilarning salomatligini, bardamliligini tetikligini saqlashda u katta ahamiyatga ega. Chunki, gigienik gimnastika bilan muntazam shug'ullanilganda, xarakat apparati va ichki organlar ishini boshqarish takomillashadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR.

Asosiy:

- 1.Nuriddinov E.n Odam Fiziologiyasi.Toshkent “Aloqachi”,2005,505 bet
- 2.Babaskiy E.B va boshqalar.Odam fiziologiyasi.Toshkent 1972
- 3.Fiziologiya cheloveka (ucheb pod.red.G.I kositskogo),Moskva 1985.
- 4.Azimov I.G.Sobitov Sh.S Sport fiziologiyasi-Toshkent, O’zDJTI nashriyot bo’limi,1993
- 5.Azimov I.G.Sobitov Sh.S Fiziologiya.Jismoniy tarbiya institutlari uchun o’quv qo’llanma.Toshkent. O’zDJTI,nashriyot bo’limi,1996.
- 6.Azimov I.G.Xamraqulov A.K.Sobitov Sh.S umumiy va sport fiziologiyasidan amaliy mashg’ulotlar.-toshkent.,”O’qituvchi”,1992.
- 7.SH.Kurbanov,A.Kurbanov«Jismoniy mashqlarning fiziologik asosi»T.2003y.
8. I.G.Azimov, SH.S.Sabitov «Sport fiziologiyasi» T.1993 y.
9. I.G.Azimov, SH.S.Sobitov «Fiziologiya» T.1995 y.
10. Azimov G.I. (pod.red.) Umumiy va sport fiziologiyasidan amaliy mashg’ulot T.1992 y.

Qo’shimcha:

- 1.Kats B Nerv,mishtsa I sinaps.,M:1968
- 2.Fiziologiya cheloveka (pod.obsh.redak.N.V Zimkina),1970
- 3.Fiziologiya Mishechnoy deyatelnosti(pod redak.Ya.MKotsa)-M:1982
4. Xripkova A.G., Antropova M.V. Adaptatsiya organizma uchun xisla k uchebnoyi fizicheskoy nagruzkam. M.Prosveteniye. 2002.
5. www.search.re.uz
6. www.ictcountcil.gov.ru
7. www.ref.uz
8. www.ziyonet.uz
- 9.www.google.uz
10. www.nun.uz

Dasturning informatsion - uslubiy ta’minoti

6. www.tdpu.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.Ziyonet.uz
9. www.edu.uz
- 10.tdpu INTRANET. uz

Didaktik vositalar

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** stadion maketlari, plakatlari, elektron doska – Hitachi, LCD monitor, elektron ko’rsatkich.
- **video audio uskunalar:** video, audiomagnitofon, ovoz kuchaytirgich.
- **kompyuter va multimedialiy vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web- kamera, video – ko’z (glazok).